



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTRISHDA XORIJIY
MAMLAKATLARNING RAQAMLASHTIRISH TAJRIBASI**

**ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ОБЛАСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ В РАЗВИТИИ
МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА**

**FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE OF DIGITALIZATION IN THE
DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP**

Pazilidinov Muxiddin Maxammadin o‘g‘li
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya va Hindistonda raqamlashtirish orqali kichik biznesni rivojlantirish tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Yetakchi mamlakatlarda startaplarni qo‘llab-quvvatlash, elektron tijorat infratuzilmasi, raqamli to‘lov tizimlari va davlat dasturlari samaradorligi o‘rganilgan. AQSHda “America Rescue Plan Act” raqamlashtirish darajasini 30% dan 55% gacha oshirgan; Xitoyda Alibaba, WeChat Pay va “Internet+” dasturi kichik biznesni keng qamrab olgan; Janubiy Koreyada “Digital Small Business Ecosystem”, AI va 5G texnologiyalari joriy etilgan; Hindistonda UPI tizimi (74 mlrd tranzaksiya) va RAMP dasturi orqali raqamli to‘lovlar jadal rivojlangan. Xulosa qilib, O‘zbekiston uchun maxsus soliq rejimi (2% yagona soliq), raqamli platformalarni rivojlantirish va tadbirkorlarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, raqamlashtirish, xorijiy tajriba, AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, soliq ma‘murchiligi, O‘zbekiston.

В данной статье проводится сравнительный анализ опыта развития малого бизнеса через цифровизацию в США, Китае, Южной Корее и Индии. Изучены поддержка стартапов, инфраструктура электронной коммерции, цифровые платёжные системы и эффективность государственных программ в ведущих странах. В США «America Rescue Plan Act» повысил уровень цифровизации с 30% до 55%; в Китае Alibaba, WeChat Pay и программа «Internet+» охватили малый бизнес; в Южной Корее внедрены «Digital Small Business Ecosystem», технологии ИИ и 5G; в Индии благодаря системе UPI (74 млрд транзакций) и программе RAMP активно развиваются цифровые платежи. В заключение разработаны предложения для Узбекистана: специальный налоговый режим (единый налог 2%), развитие цифровых платформ и повышение цифровой грамотности предпринимателей.

Ключевые слова: малый бизнес, цифровизация, зарубежный опыт, США, Китай, Южная Корея, Индия, электронная коммерция, цифровая экономика, налоговое администрирование, Узбекистан.

This article provides a comparative analysis of the experience of developing small businesses through digitalization in the USA, China, South Korea, and India. It examines startup support, e-commerce infrastructure, digital payment systems, and the effectiveness of government programs in leading countries. In the USA, the "American Rescue Plan Act" increased the digitalization rate from 30% to 55%; in China, Alibaba, WeChat Pay, and the "Internet+" program have widely covered small businesses; South Korea has implemented the "Digital Small Business Ecosystem," AI and 5G technologies; in India, digital payments have rapidly developed through the UPI system (74 billion transactions) and the RAMP program. In conclusion, proposals have been developed for Uzbekistan: a special tax regime (2% single tax), the development of digital platforms, and improving the digital literacy of entrepreneurs.

Keywords: small business, digitalization, foreign experience, USA, China, South Korea, India, e-commerce, digital economy, tax administration, Uzbekistan.

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Rivojlangan davlatlarda ushbu sektor yalpi ichki mahsulot (YaIM) va bandlikning 50% dan ortig‘ini ta‘minlaydi [1]. So‘nggi yigirma yillikda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kichik biznes faoliyatida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Internet-texnologiyalar, onlayn savdo, raqamli marketing, bulutli hisoblash va internet-savdo platformalari tadbirkorlar uchun mavjud bo‘lib, ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tezisda AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya va Hindiston tajribalari, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Germaniya statistik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, raqamlashtirish orqali kichik biznesni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va mexanizmlari yoritiladi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan xorijiy mamlakatlar statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, AQSHda 33,4 million, Yevropa Ittifoqida 22,8 million, Buyuk Britaniyada 5,5 million, Yaponiyada 3,6 million va Germaniyada 2,6 million kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritadi [1]. Ushbu subyektlarning umumiy korxonalar sonidagi ulushi barcha mamlakatlarda 99,5–99,9 foizni tashkil etadi. YaIMdagi ulushi Germaniyada 52%, Buyuk Britaniyada 51%, Yaponiyada 50% va Yevropa Ittifoqida 50% darajasida qayd etilgan. Bandlikka qo‘shgan hissasi bo‘yicha Yaponiyada 68,8%, Yevropa Ittifoqida 64%, Buyuk Britaniyada 60,7% va Germaniyada 54,4% ni tashkil etadi [1]. Ushbu ko‘rsatkichlar kichik biznesning iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

AQSH iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish alohida e‘tiborga loyiqdir. 2000-yillarning boshidan boshlab raqamli texnologiyalar turli korxonalar, jumladan, kichik kompaniyalarning biznes jarayonlariga keng joriy etildi. Internetning o‘ssishi bilan ijtimoiy tarmoqlar, mobil texnologiyalar, Big Data tahlillari va boshqa raqamli vositalardan Qo‘shma Shtatlardagi kichik biznes subyektlari faol foydalana boshladi. Kichik biznesni raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dastur va tashabbuslar ham kengaydi. AQSH tajribasida kichik biznesni raqamlashtirishning bir qancha muhim jihatlari ajralib turadi. Birinchidan, startaplar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashning keng infratuzilmasi – venchur kapitali, inkubatorlar, akseleratorlar, texnoparklar va davlat moliyalashtirish dasturlari orqali amalga oshiriladi. 2023-yil holatiga ko‘ra, qiymati bir yil ichida 1 mlrd AQSH dollariga yetgan startap korxonalar soni 666 tani tashkil etib, bu dunyodagi bunday korxonalarning 42 foiziga teng [1]. AQSH innovatsion startap g‘oyalari bo‘yicha dunyoda yetakchi bo‘lib, ular barcha amerika korxonalarining 51 foizini tashkil etadi va mamlakat YaIMining 25 foizini ishlab chiqaradi [1]. Ikkinchidan, biznes jarayonlarini raqamlashtirish – bulutli texnologiyalar, Big Data tahlillari, mobil ilovalar va onlayn marketing vositalari keng joriy etilgan. Uchinchidan, rivojlangan raqamli iqtisodiyot ekotizimi – dasturiy ta‘minot ishlab chiqaruvchilari, internet provayderlari, onlayn platformalar, moliya institutlari va konsalting kompaniyalarini o‘z ichiga oladi. To‘rtinchidan, tadbirkorlarni o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash – bepul kurslar, master-klasslar, vebinarlar va Kichik biznes ma‘muriyati (SBA) tomonidan maslahat xizmatlari ko‘rsatiladi. Beshinchidan, Etsy, Shopify, eBay kabi onlayn platformalar orqali kichik tadbirkorlarning bozorga chiqish imkoniyatlari kengaytirilgan. COVID-19 pandemiyasi AQSHda raqamlashtirish jarayonlarini yanada tezlashtirdi. 2021-yilda qabul qilingan “America Rescue Plan Act” asosida amalga oshirilgan islohotlar natijasida kichik biznes va tadbirkorlikda raqamlashtirish darajasi 30% dan 55% gacha oshdi [2]. Ishchilarni yangi texnologiyalar va sun‘iy intellekt bilan muloqotga o‘rgatish bo‘yicha ta‘lim dasturlari yaratildi, texnologiyalarni rivojlantirish uchun 300 million dollar, uy xo‘jaliklari va korxonalarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta‘minlash uchun 10 milliard dollar investitsiya yo‘naltirildi [2]. AQSH tajribasi innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitida samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish uchun texnologiyalardan samarali foydalanishga misol bo‘la oladi.

Xitoy tajribasi kichik biznesni raqamlashtirish bo‘yicha o‘ziga xos modelni namoyish etadi. Mamlakat YaIMining 10 foizi raqamli iqtisodiyot hissasiga to‘g‘ri keladi. Kichik va o‘rta korxonalar sanoatning ko‘plab tarmoqlariga kirib borgan bo‘lib, soliq tushumlarining 50 foizidan ortig‘ini va YaIMning 60 foizdan ortig‘ini ta‘minlaydi [3]. Xitoy tajribasining asosiy omillari qatoriga elektron

tijoratning yuqori darajada rivojlanganligi kiradi. Tencent holdings, Alibaba, ByteDance, JD.com kabi yirik onlayn platformalar millionlab xaridorlarga qulay logistika va to‘lov xizmatlarini ko‘rsatadi. WeChat (Weixin) messenjeri nafaqat muloqot vositasi, balki onlayn to‘lovlar, onlayn do‘konlar va onlayn marketing orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi platformaga aylangan, bu kichik biznes uchun qulay raqamli imkoniyatdir. Mobil tijoratning rivojlanganligi – xitoyliklar o‘z smartfonlaridan xaridlar uchun samarali foydalanadi, bu mobil to‘lov tizimlari, onlayn buyurtmalar va yetkazib berish xizmatlari uchun ilovalar kabi raqamli vositalarni rivojlanishini rag‘batlantiradi. Raqamli moliya sohasida Ant Financial kompaniyasi (Alibaba tarkibiga kiradi) kredit, sug‘urtalash, investitsiya va to‘lov xizmatlarini onlayn amalga oshirib, kichik biznesni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli infratuzilma – tezkor internet, 5G texnologiyalarining rivoji, elektron savdo tizimlari kichik tadbirkorlik samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Hukumat tomonidan “Made in China 2025”, “Internet+” kabi dasturlar va texnologik parklar orqali qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda. IDC tadqiqotlariga ko‘ra, 2023-2026 yillarda Xitoy kompaniyalarining raqamli biznes bo‘yicha xarajatlari yiliga o‘rtacha 19,1% o‘sadi va 2027-yilga kelib eng yirik 2000 kompaniya daromadining 40% raqamli mahsulot va xizmatlar hissasiga to‘g‘ri kelishi kutilmoqda [3]. Xitoy hukumati besh yillik rejasida (2021-2025) raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan va 2025-yilga kelib raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushini 10% ga yetkazishni maqsad qilgan [3]. Kichik bizneslarni moliyaviy va texnik yordam dasturlari orqali raqamli texnologiyalarni qabul qilishga rag‘batlantirish, shuningdek, raqamli savodxonlikni oshirish va raqamlashtirish bo‘yicha treninglarni keng miqyosda tashkil etish Xitoy tajribasining muhim tarkibiy qismlaridir.

Janubiy Koreya Respublikasi tajribasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishganligi bilan e‘tiborga molikdir. 2021-2023 yillarda raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik sektoriga integratsiya qilishga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. E-tijorat, raqamli to‘lov tizimlari va bulutli xizmatlar kichik va o‘rta biznes uchun muhim vositalarga aylandi. Kakao T va Baemin kabi raqamli platformalar keng tarqalib, bizneslarga yangi mijozlar topish va xizmatlarni raqamli shaklda taqdim etishda yordam bermoqda. 2021-yilda kichik bizneslarning 40% dan ortig‘i raqamli texnologiyalarni joriy qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 60% ga yetdi [4]. Janubiy Koreya kichik bizneslar uchun elektron tijorat bozorini kengaytirish maqsadida “Digital Small Business Ecosystem” platformasini joriy etdi. Bu platforma kichik bizneslarga onlayn sotuvlarni boshqarish, mahsulotlarni raqamli tarzda reklama qilish va xalqaro bozorga chiqish imkonini beradi [4]. Koreya hukumati kichik bizneslarga raqamli transformatsiya jarayonida sun‘iy intellekt (AI) va 5G-texnologiyalaridan foydalangan holda yangi biznes imkoniyatlarini yaratishga yordam berdi. 2022-yilda sun‘iy intellektni qo‘llash darajasi kichik bizneslar orasida 25% ga ko‘tarildi [4]. 2023-yilda kichik bizneslarga raqamli platformalarda ishlashni osonlashtirish uchun hukumat 500 million dollar miqdorida subsidiyalar ajratdi, bu esa 5000 dan ortiq kichik biznesning raqamli infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qildi [4]. Shuningdek, Koreya hukumati kichik bizneslarga raqamli xizmatlardan foydalanishni rag‘batlantirish uchun vaucher tizimini joriy etdi. 2023-yilda 10 000 dan ortiq kichik biznes bu vaucherni olish orqali o‘z faoliyatlarini raqamlashtirdi [4]. Janubiy Koreya davlat va xususiy sektori o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali kichik bizneslar uchun raqamli transformatsiyani davom ettirishga intilmoqda. Bu jarayonda 5G texnologiyasi va sun‘iy intellekt kabi ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati ortib bormoqda. Shu bilan birga, korxonalarga onlayn rezervatsiya va buyurtmalarni qabul qilish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning raqamli xizmatlar ko‘rsatishdagi samaradorligini oshirishga yordam berilmoqda.

Hindiston tajribasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. 2020-yildan boshlab Hindistonning raqamli to‘lov tizimlari, masalan, UPI (Unified Payments Interface) va boshqa mobil to‘lov ilovalari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sezilarli darajada oshdi. 2021-yilda ushbu tizimlar orqali 38 milliard tranzaksiya amalga oshirilgan, ularning umumiy qiymati 900 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 74 milliard tranzaksiyaga yetdi, umumiy qiymat esa 1,5 trillion AQSH dollariga ko‘tarildi [5]. Bu raqamlar Hindistonning kichik bizneslarini raqamli tizimlar orqali moliyaviy imkoniyatlarga yanada keng kirish imkonini yaratganini ko‘rsatadi. Hindiston hukumati

kichik bizneslarga raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlash uchun turli dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2022-yilda Hindiston hukumati yangi RAMP (Raising and Accelerating MSME Performance) dasturini ishga tushirdi. Ushbu dastur orqali kichik va o‘rta bizneslar uchun mavjud bo‘lgan tizimlar yanada takomillashtirilgan va bu orqali ularning bozor ulushi hamda eksport salohiyati oshirildi. Dastur MSME (Micro, Small, Medium Enterprises) larga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda, ularning biznes imkoniyatlarini kengaytirishda va xalqaro bozorlar bilan aloqalarini mustahkamlashda yordam berdi. 2022-yilda 7 000 dan ortiq MSME tashkilotlari bu dasturga jalb qilindi, bu orqali ularning ishlab chiqarish samaradorligi va global raqobatbardoshligi oshdi.

Dastur orqali 1,2 milliondan ortiq kichik va o‘rta bizneslar internet va mobil platformalarda o‘z mahsulotlarini onlayn sotish imkoniyatiga ega bo‘ldi [5]. Dastur doirasida MSME larga raqamli to‘lovlar, marketing va elektron tijorat bo‘yicha treninglar va qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatilgan. Hindistonda MSME sektori mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) taxminan 30% hissa qo‘shadi, shuningdek, oxirgi besh yil ichida bu sektorning umumiy eksportdagi ulushi 50% atrofida saqlanib kelgan [5]. 2024 yilga kelib, kichik va o‘rta biznes (MSME)larning raqamlashtirilishi Hindiston yalpi ichki mahsulotiga 158–216 milliard AQSH dollari qo‘shishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Ushbu sektor hozirda Hindiston ishlab chiqarish YaIMining 6,11%, xizmatlar YaIMining 24,63% va umumiy ishlab chiqarish mahsulotining 33,4% ni tashkil etadi [5]. Hindiston raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasida dunyoda uchinchi o‘rinda turadi, bu asosan kichik bizneslarda elektron tijorat va raqamli to‘lovlarning jadal joriy etilishi bilan bog‘liq. Hukumatning “Atmanirbhar Bharat” kabi tashabbuslari va raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlayotgan startaplar, masalan, Khatabook va Shiprocket, ushbu sektorda raqamli yechimlarni kengaytirishga yordam bermoqda [5]. Onlayn tizimlar va platformalar Hindistonning kichik bizneslari uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu ular uchun yangi bozorlarni ochmoqda. Masalan, Bharat eMarket platformasi 2023-yilda kichik va o‘rta bizneslarga 300 milliondan ortiq mijozga onlayn savdo imkonini taqdim etdi [5]. 2023-yilda Paytm, PhonePe kabi ilovalar orqali kichik bizneslarning 75% dan ortig‘i raqamli to‘lov tizimlarini qabul qila boshladi, bu esa ularning tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga va tezroq to‘lovlar olishga imkon yaratdi. Yangi texnologiyalar va platformalar, masalan, mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash uchun CRM tizimlari, raqamli to‘lovlar va onlayn marketing vositalari, kichik bizneslar uchun yangicha imkoniyatlar yaratmoqda [6-7].

Xorijiy mamlakatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, kichik biznesni raqamlashtirishning muvaffaqiyati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning kompleks mexanizmlari – soliq imtiyozlari, grantlar, subsidiyalar, inkubator va akselerator dasturlari mavjudligi bilan bog‘liq. AQSHda Kichik biznes ma‘muriyati (SBA) faoliyati, Xitoyda “Internet+” va “Made in China 2025” dasturlari, Janubiy Koreyada “Digital Small Business Ecosystem” platformasi va vaucher tizimi, Hindistonda RAMP dasturi buning yaqqol misolidir. Ikkinchidan, raqamli infratuzilmaning (yuqori tezlikdagi internet, 5G, optik tolali tarmoqlar) rivoji asosiy omil hisoblanadi. Xitoy va Janubiy Koreyada 5G-texnologiyalarining keng joriy etilishi kichik biznesda sun‘iy intellekt va bulutli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini keskin kengaytirdi. Uchinchidan, elektron tijorat platformalari va raqamli to‘lov tizimlarining keng qamrovli integratsiyasi kichik biznesning bozorga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. AQSHdagi Etsy, Shopify, eBay, Xitoydagi Alibaba, JD.com, WeChat Pay, Alipay, Hindistondagi UPI tizimi va Bharat eMarket platformasi buning yorqin namunasidir. To‘rtinchidan, tadbirkorlarning raqamli savodxonligini oshirish va malakali kadrlar tayyorlash tizimi raqamlashtirish jarayonining uzviy qismi bo‘lishi kerak. AQSHda SBA tomonidan bepul kurslar, Xitoyda raqamli savodxonlik bo‘yicha keng miqyosdagi treninglar, Janubiy Koreyada vaucher tizimi orqali raqamli xizmatlarga o‘qitish, Hindistonda MSME larga raqamli to‘lovlar va marketing bo‘yicha treninglar bu yo‘nalishdagi muhim qadamlardir. Mazkur tajribalar O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni raqamlashtirish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Петровская Н.Е. Цифровая трансформация малого бизнеса в Соединенных Штатах Америки в условиях пандемии COVID-19 // Стратегии и инновации. – 2021. – JEL O31; N72; G01.
2. America Rescue Plan Act of 2021 (H.R. 1319). – U.S. Congress, 2021.
3. McKinsey & Company. The future of digital innovation in China: Megatrends shaping one of the world’s fastest evolving digital ecosystems. – 2021. URL: <https://www.mckinsey.com/~media/mckinsey/featured%20insights/china/...> (дата обращения: 2025).
4. DataReportal. Digital 2022: South Korea. – 2022. URL: <https://datareportal.com/reports/digital-2022-south-korea>
5. Ministry of Micro, Small and Medium Enterprises (MSME), Government of India. Annual Report 2022-23. – New Delhi, 2023. URL: <https://msme.gov.in/sites/default/files/MSMEANNUALREPORT2022-23ENGLISH.pdf>
6. Pazilidinov M.M., Aripov O.A. Development Tendencies of the Digital Economy in Uzbekistan // International Interdisciplinary Research. – 2023. – Vol. 2, Issue 5. – P. 55–59.
7. Pazilidinov M.M. O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. – 2024. – Vol. 4, Special Issue 3. – P. 87–100. DOI: 10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N13

УДК: 338.47

**ЭКОСИСТЕМА ПРИМЕНЕНИЯ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В МЕНЕДЖМЕНТЕ
ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ**

**TRANSPORT INFRATUZILMALARINI BOSHQARISHGA TIZIMLI YONDOSHNI
QO‘LLASH EKOTIZIMI**

**ECOSYSTEM FOR APPLYING A SYSTEMS APPROACH TO TRANSPORT
INFRASTRUCTURE MANAGEMENT**

Ахмедов Р.М. к.э.н., доцент Наманганского государственного университета,
ORCID: 0009-0001-9620-8310

Жураева М.З. Наманганский государственный университет

Аннотация

В статье обосновывается необходимость уточнения и введения понятия «экосистема в дорожном хозяйстве» в рамках системного подхода к менеджменту транспортной инфраструктуры. Под экосистемой предлагается понимать не природную экологическую систему, а интегрированную управленческую, организационную и технологическую среду, в которой взаимосвязанные элементы (государственные органы, инфраструктура, финансовые механизмы, цифровые технологии, подрядные организации и общественные институты) функционируют как единое целое для достижения экономической эффективности и устойчивого развития дорожной отрасли.

Ключевые слова: Системный подход, менеджмент дорожного хозяйства, экосистема в дорожном хозяйстве, инфраструктурное управление, государственное регулирование, организационная структура, финансовые механизмы, цифровизация, инновационные технологии, стратегическое управление, эффективность управления.

Ushbu maqolada transport infratuzilmasini boshqarishga tizimli yondashuv doirasida “yo‘l ekotizimi” tushunchasiga aniqlik kiritish va joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Ekotizim